

## **SARSABIL, SPARJA (ASPARANGUS) O'SIMLIGININING BIOLOGIK O'RGANILISHI**

Hasanova Sevara Tursunqulovna

Toshkent Davlat Agrar universiteti Samarqand fililali, tayanch doktoranti

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Sarsabil o'simligi, uni o'stirish texnologiyasi, xususiyatlari, urug'dan ko'paytish texnologiyasi, parvarilishi, sug'orish va shu kabi boshqa ko'plab ma'lumotlar tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** quruq klimatli regionlarda, sporalar, substrat, Birinchi nihollar, dorivor sarsabil (sparja), uy sharoitida faqat manzarali o'simlik sifatida, sarsabil pashshasi, barg qo'ng'izi, shiralar, oranjereya tripslari...

### **ANNOTATION**

In this article, the Sarsabil plant, its cultivation technology, characteristics, seed propagation technology, care, irrigation and many other such information are researched.

**Keywords:** in dry climate regions, spores, substrate, first sprouts, medicinal sarsabil (asparagus), domestic only as an ornamental plant, sarsabil fly, leaf beetle, aphids, orangery thrips...

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье исследуется растение Сарсабиль, технология его выращивания, характеристики, технология размножения семенами, уход, полив и много другой подобной информации.

**Ключевые слова:** в районах с засушливым климатом, споры, субстрат, первые всходы, сарсабил лекарственный (спаржа), окультуренный только как декоративное растение, сарсабиловая муха, листоед, тля, оранжерейный трипс...

## **KIRISH**

**Sarsabil** o'simligi, ikkinchi nomi asparagus, lolaguldoshlar oilasiga mansub o'simlik hisoblanadi. Ushbuu turkum 200 xil o'simlik turlarini o'z ichiga oladi. Tabiatda quruq klimatli regionlarda uchrab turadi. Eng mashg'ur va keng ko'llaniladigan turlaridan- dorivor sarsabil (sparja) hisoblanadi. Ushbu turkum vakillari o'tloq va yarim butalardan tashkil topib, ularning ildizpoyalari kuchli rivojlangan bo'lib, novdalari shoxlangan ko'rtakli. Faqatkina ayrim sarsabilning (sparja) turlarida novdalarining tepe qismi oziqbob, parxeshli bo'lib hisoblanadi. Bularga aynan popukli, dorivor va kaltabarglilar turlari kiradi.

Sarsabil eng qimmatbaho, shirin va foydali ekinlar qatoriga kiradi.



## **O'stirish texnologiyasi.**

1. Ekish. O'rugi larni ko'chat yetishtirish uchun ekishni aprel oyining o'rtalaridan boshlaydi. Tayyor ko'chatlarni iyun oylarining birinchi kunlaridan ochiq maydonga ko'chirib ekadi.
2. Yorug'lik. O'sish joyi yorug', quyosh nurlari tushib turadigan, ochiq dala bo'lishi kerak.
3. Grunt. Tuprog'i qo'moqli, oziqaga boy va unumli bo'lishi kerak.
4. Sug'orish. Sarsabil ekilganidan so'ng birinchi 10 kunligida suv mo'l va tez-tez berilishi shart. Yoz jazirama kelsa har kuni so'g'orish lozim, chunki tuproq nam bo'lib turishi kerak.
5. O'g'itlash. Ko'chatlar ochiq maydonga ekilganidan so'ng, 7-10 kundan keyin go'ngli atala eritmasi bilan oziqlantiriladi, 20 kundan keyin yana parranda axlati (1:10) nisbatda,sovuqlar tushishidan oldin esa – to'liq mineral o'g'itlar bilan oziqlantiriladi.



6. Ko‘paytirilishi. Generativ (urug‘idan)
7. Zararkunandalari. Sarsabil pashshasi, barg ko‘ng‘izi, shiralar, qalqondorlar, oranjereya tripslari
8. Kasalliklari. Ildiz va ko‘l chirishlari, zang kasalliklari, fomoz, serkospoz.



## **MUHOKAMA VA TADQIQOTLAR NATIJASI**

### **O‘ziga xos xususiyatlari.**

Sabzavot sarsabil ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib hisoblanadi. Ildizpoyasi kuchli rivojlangan, ko‘rtaklari tarqalib ketgan. Shoxlarida ko‘plab ignasimon novdalari bor xammasi bir tuplamga yig‘ilgan, ular chala rivojlangan pilakchalari yoki tikansimon, mayda barg plastinalaridan o‘sib chiqib, ularning asosida qattiq shoxchalar (sporalar) hosil qiladi. Mayda gulchalari yakka o‘sib chiqishi mumkin yoki qalqonsimon, panjasimon shakllarida bo‘ladi. Bularning xammasi barg qultiqlaridan o‘sib chiqadi. Mevasi- rezavor meva, ichida bitta yoki bir nechta urug‘i bo‘ladi, pusti qalin qoplangan, to‘k rangda. Istyemol uchun faqatgina yosh novdalar terib olinadi. Sarsabil ekinining poyasidagi ko‘rtaklardan barglar yozila boshlaganidan keyin, ularni istyemol qilib bo‘lmaydi, chunki ular qattiqlashadi. Butalar meva tugish davrining avjida, bir sezonda 9-12 tagacha poyalar berishi mumkin, bu poyalar miqdori to‘liq ikki porsiya garnirga yetarli bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, bu o‘simlikning hosildorligi yuqori bo‘lmaydi, lekin bu sabzavot ekini juda qimmatbaho maxsulot hisoblanadi.



### **Sarsabilning urug‘idan ko‘paytirilishi.**

Sarsabilni urug‘idan ko‘paytirmoqchi bo‘lganimizda uning ko‘chatlarining unib chiqishini o‘zoq vaqt kushimizga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun xam bu madaniy o‘simlikni ko‘chatlardan ko‘paytirish tavsiya etiladi. Urug‘larga ekish oldi ishlov berilishi kerak, aynan ekish vaqtı oldida. Buning uchun 3-4 kun iliq suvda urug‘larni ivitib olamiz, suvini kuniga 2 marotaba almashtirib turish kerak. Shishib qolgan ekiladigan urug‘lar namlangan mato ustiga yoyib qo‘yiladi va ularning nishi paydo bo‘lguncha saqlanadi. Nishlari 0,1-0,3 sm ga yetganida urug‘lar ekiladi. Bunda yaşčik yoki 100-200 ml hajmli mayda tuvakchalarga ekiladi. Tuvakchalarni substrat bilan to‘ldiramiz. Uning tarkibida dala tuprog‘i, chirigan go‘ng, qum va torf (1:1:2:1) nisbatda. Yaşčiklarga oralig‘ini 60 millimetр qilib ekib chiqiladi. Urug‘lar 0,15- 0,2 sm chuqurlikda ekiladi va ekilganidan so‘ng quyosh tushib turadigan joyga o‘tkaziladi, xona harorati issiq bo‘lishi lozim ( $25^{\circ}$  S). Har kuni suvni qo‘yib turish lozim. Parvarish ishlari to‘g‘ri olib borilsa, birinchi ko‘chatchalar 1-1,5 saatda ko‘rinib chiqadilar. Birinchi nixollar paydo bo‘lganidan ularning ustidan yuqa qavatda torf sepilib qo‘yiladi. Yarim oydan so‘ng ko‘chatlarni oziqlantirishimiz kerak bo‘ladi. Buning uchun kompleks mineral o‘g‘itlarning ko‘chsiz eritmasidan foydalanishimiz mumkin bo‘ladi. Sarsabil ko‘chatlari bitta umumiylashtirishimiz kerak bo‘ladi. Ko‘chatlarning bo‘yi 15 sm yetkanida, ularni hajmi kattaroq idishlarga kuchirib olishimiz kerak bo‘ladi, bunda oraliq masofasi 10 sm bo‘lishi kerak. Ekish oldi ildizlarni kaltalashtiramiz. Pikirovka o‘tkazilganidan bir necha kundan keyin sarsabilni (sparja) oziqlantirish kerak bo‘ladi. Yana 7 kundan keyin

butalarni chiniqtirishni boshlaymiz va o'simligimiz kecha-kunduz ko'chada turishga moslashganidan keyin uni ochiq maydonga o'tkazishimiz mumkin bo'ladi.

### **O'y sharoitida o'stirilishi.**

O'y sharoitida bu o'simlikning faqat ko'chatlari o'stiriladi va keyin ochiq dalaga ekiladi. Bu kimmatabo istyemol o'simligining ildizlari kuchli va uzun bo'lganligi uchun ularni uy sharoitida o'stirish juda qiyin. Uy sharoitida faqat manzaralii o'simlik sifatida o'stirishimiz mumkin, sabzavot ekini sifatida sarsabilni faqat ochiq dalada o'stiramiz.



### **Ochiq dalaga sarsabilni ekish.**

Sarsabil ko'chatlari ochiq dalaga iyunni birinchi o'n kunligida ekiladi. Yaxshi hosildorlikni olish uchun ko'chatlarni quyosh nuri tushib turadigan, shamol tegmaydigan, himoya qilib turadigan devor oldiga yaqin joylashgan maydonlar tanlanadi. Tuproqdagi suvning turg'unligi o'simlikka salbiy ta'sir ko'rsatkanligi sababli, sarsabil ko'chatlarini yer ostki suvlar sathi yaqin joylashgan maydonlarga ekish tavsiya etilmaydi. Shuning uchun maydonni extiyotkorlik bilan tanlash kerak, chunki sarsabilni bitta joyda 20-25 yil o'stirishimiz mumkin.

Sarsabilni o'stirish uchun ozuqaga boy bo'lgan, qumoqli tuproqlar qo'lay. Yerni ekishga tayyorlash kuzda boshlanishi kerak. Uning uchun maydonni begona o'tlardan tozalab, yerni 0,4-0,5 m xaydash kerak va 70 gr superfosfat, 15-20 kg kompost, 40 gr kaliy sulfatni bir kvadrat metr hisobida qo'llash tavsiya etiladi.



### **Ochiq dalaga ekish qoidalari.**

Ko‘chatlarni ekishdan oldin tayyor maydonlarda ekish chuqurlari qazilib chiqiladi. Ekish chuqurligi 30 sm, eni 40 sm da tayyorlanadi, o‘simliklar orasi 1metr bo‘lishi kerak. Chukurning tubidan yana 15-20 sm kovlanib olib, ichiga yumshoq, donador tuproq solinadi va tuldiriladi tepacha qilinib. Shu tapaning ustiga ko‘chatning ildizlarini joylashtirib qo‘yyamiz, unda ildizlar dastlab 30-40 mm gacha kalta qilib kesiladi. Chuqur tuproq bilan tuldirilib ko‘chatlarning ildizlari ko‘milib, atroflari yaxshilab zichlanib suv ko‘yiladi. Suvni o‘ziga tortkanidan keyin ustidan mulchalab ko‘yish kerak (quruq tuproq).

**Sarsabilning parvarishi** Sarsabil injik o‘simliklardan emas. Uning parvarish ishlari boshqa sabzavot ekinlarinikiga uxshash. Uni vaqtida so‘g‘orish, chopish, o‘g‘itlash va butalar qatorlar orasini yumshatib chiqish kerak. Tuproqni 60-80 ml chuqurlikda yumshatish kerak, ildizlariga shikast yetkazmasdan. Qatorlar orasiga birinchi va ikkinchi yillarda yashil ekinlar ekish tavsiya qilinadi.



## Sug‘orilishi

Ko‘chatlar ochiq maydonga o‘tkazilganlaridan keyin ularni mo‘l va tez-tez sug‘orib turishimiz kerak. Keyinchalik sug‘oriladigan suv hajmi kamaytirilib boradi hamda sug‘orish soni ham kisqaradi. Uzoq muddatli qo‘rg‘oqchilikda o‘simliklarimizni har kuni sug‘orib turishimiz shart, daladagi tuproqlarimiz doimo nam bo‘lib turishlari kerak, aks xolda sarsabilning poyalari kattik tolali bo‘lib ketadi va ta’mi achchiqlashadi

**Zararkunandalari.** Bu ekin zararkunandalarga xam chidamliligi bilan ajralib turadi, lekin uning butalarida: sarsabil pashshasi, barg qo‘ng‘izi, shiralar, oranjereya tripslari, qalqondorlar zarar yetkazadilar.

**Sarsabil pashshasi.** Bu jig‘arrangli, boshi sariq, mo‘ylovli, kichik zararkunanda. Sarsabil o‘simgining poyalari bilan oziqlanadi, pashshasi poyalarning ichini kemirib ko‘p, mayda yo‘lakchalar paydo qiladi, natijada poyalar qiyshayib, so‘lib qoladi va nobud bo‘ladi.



## Rasm. Sarsabil pashshasi

**Sarsabil barg qo‘ng‘izi.** Bu zararkunanda G‘arbiy Yevropadan sarsabil o‘simgili bilan birga kirib kelgan. Bu qo‘ng‘iz to‘q-ko‘k rangda, orqa tomonida esa qizil rang tanasini aylanib o‘tgan belbog‘i mavjud. Barg qo‘ng‘izi sarsabilning gullari, mevalari va yashil o‘tlari bilan oziqlanadi. U bahorda uyg‘onadi lekin eng yuqori zararkunandalar soni yozning o‘rtalarida ko‘zatiladi.

## **Rasm. Sarsabil barg qo‘ng‘izi Himoya qilish chora-tadbirlari**

Zararkunanda va kasalliklarini oldini olish maqsadda bahorda va kuzda butalarga bordos suyukligi tayyorlanib ishlov berilishi kerak, yoki boshqa fungisid preparati masalan: Topaz, Fitosporin, Topsin-M lar bilan ishlov beriladi. Zararkunandalarning belgilari namoyon bo‘lganidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘simplikni kmyoviy usul bilan dorilash kerak bo‘ladi. Dalalarda muntazam ravishda tekshiruv monitoring o‘tkazib turish kerak, begona o‘tlarga qarshi chora-tadbirlarni olib borish kerak. Daladan qo‘rib qolgan, nobud bo‘lgan o‘simpliklarni chiqarib tashlab yoqib yuborish kerak.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. K.Xojimatov, K.Xaydarov „O’zbekiston O’simpliklari”(Toshkent 1992)
2. A.Xamidov „O’simpliklar geografiyasi va botanikasi (Toshkent 1984).
3. Hojimatov Q. Olloyorov M. „O’zbekiston shifobaxsh O’simpliklari va ularni muhofaza etish” (Toshkent 1988).
4. Tursunov.X.T, RaxmonovT.U. „Ekolgiya “ (Toshkent 2006.- Yil).
5. X.K. Xaydarov. “Botanika fanidan o’quv dala amaliyoti uchun,, ( Toshkent 2015)
6. A.Soliev. „Uzbekiston geografiyasi” (Toshkent 2014)
7. A.X.Xamidov va boshqalar , O’zbekiston o’simpliklarini Aniqlagichi” (Toshkent 1987 )
8. K.Z.Zokirov „O’rta Osiyo o’simplik oilalarini aniqlagichi” (Toshkent. 1963)
9. K.Z.Zokirov va boshqalar Botanikadan ruscha-o’zbekcha Entsiklopedik lug’at (Toshkent. 1973.)

